



Cultural semantics of emotive words: an analysis of Uzbek and English proverbs

Nasiba SHERIMBETOVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

15 November 2024

Keywords:

emotiveness,
linguistic means,
literary criticism,
paradigm,
fiction.

ABSTRACT

This article presents the cultural semantics of emotive words: an analysis and theoretical aspects of Uzbek and English proverbs. Additionally, the article addresses the issues of studying the world's languages, their significance and necessity in human and societal life in an era of rapid globalization.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6-pp313-317>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Emotiv so'zlarning madaniy semantikasi: o'zbek va ingliz maqollarining tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

emotivlik,
lisoniy vositalar,
adabiyotshunoslik,
paradigma,
badiiy adabiyot.

Ushbu maqolada emotiv so'zlarning madaniy semantikasi: o'zbek va ingliz maqollarining tahlili hamda nazariy jihatlari keltirilgan. Bundan tashqari maqolada hozirgi jadallik bilan globallashib borayotgan bir zamonda dunyodagi tillar, ularning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati hamda zaruratini o'rganish masalalari ham keltirilgan.

Культурная семантика ЭМОТИВНЫХ СЛОВ: анализ узбекских и английских пословиц

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

эмоциональность,
языковые средства,
литературная критика,
парадигма,
художественная
литература.

В данной статье рассматривается культурная семантика эмотивных слов: анализ и теоретические аспекты узбекских и английских пословиц. Кроме того, в статье также затрагиваются вопросы изучения языков мира, их значения и необходимости в жизни человека и общества в современную эпоху стремительной глобализации.

¹ Researcher, Uzbekistan State World Languages University. E-mail: sherimbetovanasibaa@gmail.com

KIRISH

Jahonda lingvistika va adabiyotshunoslik fani sohasida til va inson munosabatiga e'tibor ortib bormoqda, ya'ni lisoniy hodisalar antropotsentrik paradigma kesimida tadqiq etilmoqda. Jahon tilshunosligida inson ichki olamini tasvirlash uchun tanlaniladigan lisoniy vositalar bilan bog'liq masalalarning dolzarbligi muntazam oshib bormoqda. Bu aspektda badiiy adabiyot matnlaridagi uslubiy-stilistik, fonetik, leksik, punktuatsion va pragmatik vositalar tanlanishi muhim rol o'ynaydi. Jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot maktablarida inson kechinmalari va hissiyotini badiiy aks ettirishning uslubiy vositalari hamda lingvokognitiv mexanizmlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi, zero, har qanday badiiy asar syujeti muayyan miqdordagi personajlarga tayanadi, ular esa, tabiiy ravishda fikrlashishadi, his qilishadi, boshidan kechirishadi hamda atrof-muhitning turli ob'ektlari va hodisalariga nisbatan o'z his-tuyg'ularini va emotsiyalarini ifodalashadi.

ASOSIY QISM

Mustaqil O'zbekistonda badiiy adabiyotga qiziqish faol rivojlanmoqda, chet tillarini o'qitish o'quv jarayoniga chuqurroq tatbiq etilmoqda, kutubxona va axborot-resurs markazlari esa, badiiy adabiyot nashrlari bilan boyitilmoqda. So'nggi yillardagi badiiy adabiyotga qiziqishning yuksalishi zamirida adabiyotning insonga o'tmishga nazar tashlash hamda personajlar hayotini o'rganish, ularning madaniyati, tarixi va maishiy turmushidan xabardor bo'lish imkoni taqdim etishi kabi xossalar yotadi. Chet tilini badiiy matndan foydalanish orqali o'qitish zamonaviy chet tili o'qituvchisi mehnatining ajralmas xususiyatlaridandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarni kitobxonlikka o'rgatish kerak. Faqat ushbu vazifalar bajarilgach jamiyatimizda kitobxonlik madaniyati paydo bo'ladi. Aynan ma'rifat va ta'lim xalqlarning gullab yashnashining kaliti, insonlarni savobga, ezgulikka, bag'rikenglikka yetaklovchi yo'ldir". Badiiy matn mutolaasi va tahlili nafaqat lingvistik, balki matnning ham lingvokognitiv, ham lingvokulturologik imkoniyatiga tayanadi. Matnlarda personajlarning psixik holatini tasvirlash maqsadida qo'llaniladigan turli uslublar va hissiy ta'sirchanlik bo'yog'iga ega birliklar, undovlar, tinish belgilarining vazifalari bilan bog'liq masalalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubda oshirish chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-5850-son, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarorlari va bu boradagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi jadallik bilan globallashib borayotgan bir zamonda dunyodagi tillar, ularning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati hamda zaruratini o'rganish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, boshqa mavjudotlardan farqli ravishda til inson uchun eng muhim aloqa – aralashuv vositasi, ijtimoiy quroldir. Shu jihatdan, tilda mavjud birliklar hamda ularning ma'nolarini o'rganish har qachongidan ko'ra hozirgi davr uchun muhim hisoblanadi.

Tilga nisbatan kognitiv yondashuvning farqlovchi xususiyati til yaxlit hodisaning faqat bir qismi ekanligini tushunish bo'ldi, biz uni anglashga harakat qilamiz. Kognitiv fan

bilim tuzilmalarining, lingvistikadan fan sifatida foydalangan holda, til yordamida bu tuzilmalarga aralashish imkonini berib, shakllanishi va faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni o'zaro birlashtiradi. [3] Inson hissiyoti emotsiyalar va his-tuyg'ular manbasi bo'lib, antropotsentrik tilshunoslik, kognitologiya, psixologiya, falsafa va aralash fanlarning tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Emotsiya vositasida inson his qiladi va atrof muhit obyektlariga o'z munosabatini ifodalaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, hissiyotlar insonning ichki va tashqi olamini o'zaro bog'laydi. Inson kechinmalari va hissiyotlar emotsiyalarining kognitiv aspekti bevosita "til-tafakkur-emotsiyalar" triadasiga aloqadordir [4]. His-tuyg'u va hissiyotlarni ifodalovchi lingvistik vositalar bo'lib yuklamalar, so'roq olmoshlari, turli tinish belgilari, ko'makchilar, haqorat so'zlar va iboralar, vulgarizmlar, hissiy-ta'sirchanlik bo'yog'iga ega sifatlar va ravishlar va boshqalar xizmat qiladi. Ularni ko'pincha "affektivlar" deb atashadi. Emotiv leksika to'g'ridan-to'g'ri inson psixikasi bilan bog'liq, zero emotsiyalar uning psixologik holatini ifodalaydi. **Emotiv leksika ma'nosini ifodalanish tiplarini ko'rib chiqamiz:**

1. Denotativ emotiv ma'no, lug'atlarda o'z ifodasini topadi.
2. Fakultativ emotiv ma'no, emotiv so'zlarning konnotativ va predmetlimantiqiy mazmunlarining o'zaro aloqasida kuzatiladi.
3. Potentsial emotiv ma'no, potentsial emotivlikni shakllantiradi.

Xalq yaratgan ma'naviy madaniyatning yaxlit bir butunligi bu albatta o'sha xalqning maqollari hisoblanadi. Har bir xalqning og'zaki yoki o'zma yodgorligini olib qaraylik, unda bani bashar xotirasida elas-elas saqlanib kelayotgan asotirafsonalar, uzoq tarix qa'ridagi ibtidoiy tasavvur va tushunchalar, asr-asrlar davomidagi kuzatishlardan xosil bo'lmish hayotiy hikmatlar qaymog'i-insoniy tafakkur tajribasining in'ikosini ko'ramiz. Ingliz va o'zbek xalq maqollari ham ana shunday ming yillar ichida yig'ilib, sayqal topgan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan, xalq orasida aytilib, puxtalaniib, avloddan avlodga eng yaxshi ma'naviy meroslardan biri bo'lib o'tib keladi. O'tmishda yaratilib va ishlatilib kelinayotgan eng yaxshi maqollar, xalq donishmandlarining namunasi sifatida, hozir ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday maqollar va hikmatli so'zlar har bir xalqning ma'naviy boyligining qimmatbaho xazinasini tashkil etadi.

O'zbek tilidagi ayrim maqollar ingliz maqollariga funksional jihatdan mos keladi. [2] Masalan, **First think, then speak** maqolini o'zbek tilidagi muqobil varianti **Avval o'yla – keyin so'yla** maqoliga to'g'ri keladi, chunki bu maqol har ikkala tilda aynan bir xil ma'noga ega hamda uning grammatik tizimi ham ancha yaqin. Shu bilan birga, ma'lum bir tildan ikkinchi tilga berilgan o'girishlarda maqollarning aynan o'xshashini topish qiyin bo'ladi. Shunda izohlarga yoki ikkinchi bir adekvat variantga murojaat qilinadi.

O'zbek tilidagi maqollarning ingliz tilida yoki ingliz tilidagi maqollarning o'zbek tilidagi muqobil variantini topish ancha mushkul, bu borada maqollarga o'rni kelganda izoh berib o'tish tarjimaga putur etkazmaydi balki uni to'ldiradi va boyitadi [2]. **So'zlaguvchi nodon bo'lsa, eshitguvchi dano bo'lsin** maqolinining aynan nusxasi inglizchala yo'q bo'lgani holda bu maqolni uning yaqinroq ekvivalenti bilan berish mumkin. Lekin uni **If speaker is fool listener should be wise** deb tarjima qilinsa uning o'zbekcha qoloriti saqlanib qoladi va bu hammaga tushunarli bo'ladi. Xuddi shu so'zlarni **Qassob moy qayg'usida, echki – jon qayg'usida** maqoliga ham qo'llab uni **The butcher grieves for bacon, and the goat – for its life** qabilida berilsa ma'qul bo'ladi. **Qizi borning nozi bor** maqolini ingliz tiliga **Who has a daughter that has a whim** qabilida berilsa Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o'zbek urfodatlaridan bexabar ingliz o'quvchisi uni butunlay tushunmasligi mumkin. Ingliz tiliga uni **Parents of the bride may be capricious**

(they can expose their own terms) deb ag'darishdan boshqa chora yo'q. Boshqa yo'li: bu maqol mazmunini beruvchi boshqa maqol topish lozim deb hisoblaymiz.

Bir-birlariga ma'no va stilistik vazifa jihatlaridan mos bo'lib, so'z tartibida kamdan-kam mos bo'lsa, sonda kamdan-kam farq qiladilar, leksik tarkib jihatidan farq qiladigan muqobil variantlar. Ularning ko'pchiligi shaklan milliy, mazmunan baynalmilaldir. Ular shakli bilan o'zlarining muayyan milliy tilga mansubliklarini tasdiqlasalar, mazmuni bilan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi mahsuli ekanliklarini namoyon qiladilar.

K. Tumanishvili maqollar – bu millatning tarixiy o'y-fikrlari natijasi bo'lib, ularni ma'lum bir guruhning "avtobiografik" xotirasi deb nomlaydi. Maqollar milliy shakl namunalari bo'lib, millat ongida uyg'unlikda va milliy fikrlash tizimi asosida joylashgandir. Bu esa etnik guruhning qirralarini tabiiy ravishda namoyon etadi. Va genetik axborot natijasida quriladi [5]. Demak maqollarning universal va milliy xususiyatlari egaligi haqida ko'p tadqiqotlar olib borilgan. Universal xususiyatlar maqollarning tuzilishida, bir ma'noviylik va ko'p ma'noviylikligida hamda mavzularida namoyon bo'lsa, buning sababi tarixiy rivojlanish, xalqaro aloqalarning kuchayishi va umumbashariy qadryatlarning o'sishi hisoblanadi.

Milliy xususiyatlar – milliy fe'l-atvor, milliy ruh aksi bo'lib, muayyan bir etnosga tegishli xususiyatlardir. Muayyan bir etnosning yashash joyi, tarixi va milliyligi kabi zaruriy qirralarini bilmasdan turib, uning maqollari mag'zini, ma'nosini tushunish mutlaqo mumkin emas.

Maqollar xalqning hayotiy tajribasini, tajribalarini va madaniy qadriyatlarini o'zida aks ettiradi.

O'zbek maqollari:

- "Sabr-toqat – to'g'ri yo'l".
- "Har bir narsaning o'z vaqti bor".

Ingliz maqollari:

- "Patience is a virtue."
- "Every cloud has a silver lining."

O'zbek va ingliz maqollaridagi emotiv so'zlar, ularning madaniyati va ijtimoiy hayoti haqida ko'plab ma'lumotlar taqdim etadi [6].

Masalan, o'zbek maqollari ko'proq sabr va toqatga urg'u beradi, bu o'zbek xalqining an'anaviy qadriyatlarini aks ettiradi. Ingliz maqollari esa umid va ijobiy fikrni ilhomlantiradi, bu esa asosan individualizmni ta'kidlaydi.

XULOSA.

Emotiv so'zlarning madaniy semantikasini o'rganish orqali, til va madaniyat o'rtasida qanday o'zaro aloqalar borligini tushunishimiz mumkin. O'zbek va ingliz maqollari orqali bu aloqalarni yanada yaxshiroq anglash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Назрань, 2010.
2. Safarov Sh. Semantika. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
3. Демьянков В.З. Доминирующие лингвистические теории в конце XX века // Язык и наука конца XX века, 1995. – С. 304.
4. Гак В.Г. Эмоции и оценки в структуре высказывания и текста // Вестник МГУ. – Серия 9. Филология, 1997. – № 3. – С. 88.

5. Tumanishvili. The specific and the Universal in the Proverb Genre / Rustaveli Institute of Georgian Literature. Volume1, 2007.
6. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent, 2007.